



KONTRASTIV TILSHUNOSLIKKA ASOS SOLGAN BUYUK TILSHUNOS ALLOMA

Jumanazarov Baxram Mengqobil o'g'li

Xalqaro innovatsion universitet Lingvistika (ingliz tili)
yo 'nalishi 1-kurs magistranti

THE GREAT LINGUIST WHO FOUNDED CONTRASTATIVE LINGUISTICS

Jumanazarov Bakhram Mengkobil ugli

International Innovation University, 1st year master's
student, Linguistics (English)



ВЕЛИКИЙ ЛИНГВИСТ, ОСНОВАТЕЛЬ КОНТРАСТАТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Джуманазаров Бахрам Менгкобилович

Студент 1 курса магистратуры по специальности
«Лингвистика» (английский язык) Международного
инновационного университета



E-mail:

bakhran.jumanazarov@xiuedu.uz

Orcid: 0009-0009-4082-4489

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17162343>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida berilgan ikki til tizimiga mansub fonetik, leksik, grammatik qarashlarini kontrastiv tilshunos olim sifatida ilmiy dalillar orqali bayon qilganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: chog‘ishtirma (kontrastiv) lingvistika, fonetik qarash, leksik qarash, grammatik qarash, fonema, artikulyatsion-funksional tomoni, destributsiya, lug‘aviy ma‘no, ko‘p ma‘noli so‘zlar, shakldosh so‘zlar, nisbat.

Abstract. This article discusses Alisher Navoi’s phonetic, lexical, and grammatical views on the two language systems presented in his work “Muhokamat ul-lug‘atayn” as a contrastive linguist, using scientific evidence.

Keywords: comparative (contrast) linguistics, phonetic approach, lexical approach, grammatical approach, phoneme, articulatory-functional aspect, distribution, lexical meaning, polysemantic words, cognate words, ratio.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются фонетические, лексические и грамматические взгляды Алишера Навои на две языковые системы, представленные в его труде «Мухокамаат ул-лугайин» как контрастивного лингвиста с использованием научных доказательств.

Ключевые слова: сравнительное (контрастное) языкознание, фонетический подход, лексический подход, грамматический подход, фонема, артикуляционно-функциональный аспект, дистрибуция, лексическое значение, многозначные слова, однокоренные слова, соотношение.

KIRISH



Til millatlarni ajratib turuvchi asosiy muhim belgilardan biri hisoblanadi. Har bir inson o‘z tilini bilishi, uni ulug‘lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obro‘yi, nufuzi oshadi. Til tarixini, uning me‘yoriy nuqtai nazardan shakllanish, rivojlanish jarayonini millat tarixidan ayri holda o‘rganib bo‘lmaydi. Til va jamiyat ma‘no anglatish nuqtai nazaridan farqli ma‘nolarni anglatsa-da, bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi. Tilni xalq yaratadi. Xalq mustaqilligining asosiy belgisi – ona tili va milliy madaniyatidir. Millat tili o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda rivoj topib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o‘z izlarini, birinchi galda tilda qoldiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, birinchi navbatda, tilda aks etadi. Ana shu qonuniyat til va jamiyat tushunchalarini qanchalik uzviy bog‘liq ekanligini ifoda etadi. Bu bog‘liqlikni yaqin ifodalash uchun quyidagi holatni anglash yetarli: agar biz Alisher Navoiy asarlarini o‘qisak, Navoiy yashagan davr bilan “gaplashamiz”. Buyuk mutafakkirimiz qo‘llagan so‘zlar o‘sha davrdan sado beradi. Unda “bankomat”, “lokatsiya”, “teatr”, “avtobus” kabi so‘zlar mutlaqo uchramaydi. Hech ikkilanishsiz, uchrashi ham mumkin emas. Chunki u davrda bunday tushunchalarning o‘zi bo‘lmagan. Navoiyda “kitob, qalam, qalamdon, lavh” kabi so‘zlarni o‘qishimiz mumkin va ular o‘z navbatida Navoiy yashagan davrga xos hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan so‘zlar esa bizning asrimizga oid so‘zlardir. Jamiyat taraqqiy etishi bilan birga undagi o‘zgarishlarga oid tushunchalar va ularni ifodalovchi yangi so‘zlar tilda ham paydo bo‘lib boraveradi. Demak, til jamiyat bilan doimo hamnafas holda yuradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Navoiy besh asr oldin 1499-yilda tillarning o‘zaro chog‘ishtirma tadqiqiga asoslangan “Muhokamat ul lug‘atayn” asari bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yo‘nalish – komparativistikaga asos solgan edi. Buyuk alloma bu asari orqali chog‘ishtirma tilshunoslikning tadqiq yo‘llari, tahlil usullari, metodologik asosini ishlab chiqdi. Asarning yaratilishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chog‘ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo‘nalishiga asos solindi. Kontrastiv tilshunoslik bugungi zamonaviy tilshunoslikning yirik sohalaridan biriga aylandi. Bu tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ikki tizimga mansub bo‘lgan tillar tilning barcha sathlari bo‘yicha bir-biriga solishtiriladi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib



beriladi. Alisher Navoiyning bu asari orqali uning fonetik, leksik, grammatik qarashlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Arab tilshunosligida yaxshi ishlangan fonetik ta'limot Alisher Navoiyga kuchli ta'sir etgan. Shuning uchun ham u tovushlarning artikulyatsion-funksional tomoniga katta e'tibor beradi va shu belgiga ko'ra tovush tipini – fonemani belgilaydi. Fonema va harf munosabatiga e'tibor qaratadi. Ular bir-biriga doimo mos kelavermasligi, bir harf bir necha fonemani ifodalashi mumkinligini bayon qiladi. Masalan, “yoy” harfi to'rt fonemani, “*vov harfi ham to'rt fonemani ifodalash*”ini aytadi.

Fonemani so'z va morfemalarni moddiy jihatdan shakllantiruvchi va ularni bir-biridan farqlovchi birlik sifatida tushunadi. Shuning uchun ham so'z tarkibida bir xil fonetik vaziyatda kelgan tovushni boshqasiga almashtirib, ma'no farqlash belgisiga qarab fonologik vazifa bajarishi yoki bajarmasligini aniqlaydi. Bunday usul asrimiz boshlarida Amerika deskriptiv va Praga lingvistik maktablarida qo'llaniladi va destributsiya nomi bilan yuritiladi.

Alisher Navoiy o'zbek tili unililarining qator belgisi bo'yicha farqlanishi haqida fikr yuritadi va buni *o'-o*, *u-o* zidlanishi asosida dalillaydi. Masalan, o't “*olov*”, ot “*harakat*”, o't “*kallani o'tga tutib, tukini kuydirish*”. Ter “*termoq*”, ter “*aroq*”. Shuningdek, “yoy” harfi *i*, *i* (cho'ziq) va *e* fonemalarini ifodalashini ko'rsatadi. Bundan tashqari Alisher Navoiy unililarning cho'ziq-qisqalik belgisi, qofiyada fonetikaning ahamiyati singari masalalarga ham to'xtalib o'tadi va diqqatga loyiq fikrlar bildiradi.

Alisher Navoiy sharq tilshunosligida mavjud bo'lgan leksika sohasidagi bilimlar bilan qurollangani bois turk (o'zbek) tilining lug'at boyligini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Buning uchun xalq tilidan forsiy ekvivalenti bo'lmagan bir qancha so'zlarni topadi va ularning lug'aviy ma'nolarini izohlaydi. Ana shunday so'zlarga turk tilidan olingan yuzta fe'l yorqin misol bo'la oladi: *quvormoq, quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o'ngdaymoq, chekrimoq, dumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmoq, egarmoq, uxranmoq, torikmoq, aldamoq, arqadamoq, ishanmak, iglanmmak, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, devdashimoq, qiymanmoq, qizg'anmoq, nikamoq, saylanmoq, tanlamoq, qimirdamoq, serpmak, sirmamak, gonorgamak, siqriqmoq, siqinmoq, qilimoq, yolinmoq, munqlamoq, indamak, tergamak, tevrarak, qinqaymoq, shiqildamoq, singramoq, yashamoq, isqarmoq, ko'ngranmoq, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, kuymanmoq, ingramoq, tushalmoq, munqaymoq, tanchiqamoq, sukadamoq, bo'smoq, burmak, turmak, tamshimoq, qaqqamoq, sipqormoq, chicharkamoq, jurkamoq, o'rtanmoq, sizgurmoq,*



gurpashlamoq, chiprutmak, jirqamoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, kundalatmak, kumurmak, bikirmak, ko'ngurdamak, kinarkamak, kezarmak, do'ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazqanmoq, qichiqlamoq, gangiramoq, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, ko'ndurmak, so'ndurmak, suqlatmoq.

Navoiy yuqoridagi fe'llarning ba'zilar umumiy birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmani hosil qilsa ham, lekin paradigma a'zolarining har qaysisi muayyan farqlovchi sememaga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, *ingramoq, singramoq, o'kurmak, inchkirmoq, yig'lamoq* so'zlari "*yig'lamoq*" birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmaga mansub bo'lsa ham, lekin ularning har qaysisi yig'lashning xilma-xil ko'rinishlarini ifodalaydi. Bir-biridan yig'lash darajasi bilan farqlanadi. Shoir o'z fikrini she'riy parchalar bilan dalillaydi.

"Muhokamat ul-lug'atayn"da ko'p ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlarga ham ko'plab misollar keltirilgan va bu orqali turk tilining fors tilidan qolishmaydigan til ekanligini isbotlagan.

Asarda so'z yasalishi haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Garchi alloma so'z yasalish strukturasi haqida fikr yuritmasa-da, so'z yasashga asos, yasovchi vosita, yasalma tushunchalari haqida ma'lumotlar beradi. Masalan, *-chi* yasovchi vositasining imkoniyatlari kengligi, asos qismga qo'shib, bu qismning ma'nosi bilan bog'liq turli shaxs otlarini hosil qilishini bayon qiladi. Jumladan, hunar va pisha egasi ma'nosini bildiruvchi: *qushchi, qo'ruqchi, tamg'achi, jibachi, yo'rg'achi, holvochi, kemachi, qo'ychi, qozchi, quvchi, turnachi, kiyikchi, tovushqonchi.*

Asarda *-vul* affiksi yordamida yasalgan shaxs va urush asboblari otiga bir qator misollar keltiriladi: *hiravul, qarovul, chingdavul, yankovul, so'zavul, patovul, kitpovul, yasovul, bakovul, jig'avul, dakavul.* Bundan tashqari, ot yasovchi *-l*, fe'l asosga qo'shib, leksemaga gumon, shubha ma'nosini yuklovchi *-gudek, -kudek* affikslari haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Alisher Navoiyning morfologik qarashlarini "Muhokamat ul-lug'atayn"da bayon qilingan ayrim fikrlardan payqab olish mumkin. Alloma turk tili morfologiyasi haqida izchil ma'lumot berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Turk tilining fors tilida bo'lmagan morfologik imkoniyatlari xususida so'z yuritadi xolos. Masalan, turk tilida arab tili morfologiyasida mavjud bo'lgan *mufaala* fe'liga mos keladigan shakl mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Bu hozirgi kunda birgalik nisbati shakliga to'g'ri keladi. Navoiy yozadi: "... arab tilining sarfiy istilohining abvobida bir bobdurki, anga mufaala bobi ot qo'yub turlar... andoqki muoraza va muqobala va mushoara va mukolama... Va forsigo'ylar muncha fasohat va balog'at da'vosi bila bu foydadin mahrum. Ammo turk bulag'osi bu foydaga taaruz qilibdurlar. Va masdarga bir



“shin” harfi ilhaq ilmoq bila ul maqsudin topibdur. Andoqki, chopishmoq va topishmoq va quchushmoq va o‘pushmak...”. Shuningdek, fe’lning orttirma nisbati shakli haqida ham ma’lumotlar beradi. -t affiksi orqali bu nisbat hosil qilinishi ko‘rsatiladi: yugurt, yashurt, chiqart kabi.

O‘tgan asrning boshlarida Yevropa tilshunosligida paydo bo‘lgan tilshunoslikning sintaktik semantika yoki semantik sintaksis deb nomlanuvchi yo‘nalishining dastlabki izlari Alisher Navoiy asarlarida uchraydi. Alisher Navoiy sintaktik birliklar tarkibidagi leksemalarning rollariga alohida ahamiyat beradi. Jumladan, sub’ektlarning rollari (harakatni bajaruvchi, harakatni boshqa shaxsga bajartiruvchi va b.) gap predikatiga qo‘shiluvchi nisbat shakllariga muvofiq o‘zgarib borishi haqida fikr yuritadi. Chopishmoq, topishmoq, quchushmoq, o‘pishmoq fe’llari predikat bo‘lib kelgan gaplarda ikki subyekt barobar harakatni bajarishini aytadi. Shuningdek, turk tilida arab tilida bo‘lgani kabi uch so‘zli gapning markazi sanaluvchi fe’l kesimning orttirma nisbatda keltirish orqali ko‘p so‘z bilan ifodalash mumkin bo‘lgan ma’noni ifoda etish mumkinligini yozadi: “Yana arabiy sarf istilohda ikki maf’ullik (subyektilik) fe’llar borki, aning adosi dog‘i mu’tabar va kulliydur. Andin dog‘i sortlar oriy (chetda) qolibdurlar. Va atrok (turklar) anga ham xubroq vajah bila mutabayat qilibdurlar. Arabiy andoqki, “A’taytu Zaydan dirhaman” “Zaydga aqchani bergizdim”, bu tarkibda uch lafzg‘a bir harf orttirg‘on bila muxtasar va mufiz (foydali) tushubdur. Andoqki, yugurt (birkishi boshqa bir kishini yugurishga majbur etgan: biri yugurgan, ikkinchisi yuguruvchiga ta’sir etgan) va qildurt...”

Ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy mazmuniy sintaksis bo‘yicha ilk ma’lumot bergan tilshunos olimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy tilshunoslikning fonetika, morfemika, so‘z yasalihi, morfologiya, sintaksis kabi masalalari yuzasidan qimmatli mulohazalar yuritadi. Til va tafakkur, til va tillarning paydo bo‘lishi, tilda umumiylik va xususiylik kabi bir qancha tilshunoslikning umumnazariy masalalari yuzasidan o‘z qarashlarini bayon qilgan kontrastiv tilshunoslikka asos solgan buyuk tilshunos allomadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 317.
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983.
3. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. T.: 1971.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T.: 2002.
5. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. T.: 1979.



6. Tojiboyeva M. Alisher Navoiyning – Ilk devonidagi arabcha soʻzlarning leksik-semantik talqini. PhD dissertatsiyasi. – T.: 2011. – 192 b.
7. Oʻrinboyev B. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. Samarqand: 1999.